

**IQTISODIY VA IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA
KASBIY TA'LIM MUASSASALARIDA PEDAGOGIK MENEJMENT
VA RAHBAR KADRLAR KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universiteti
Harbiy pedagogika va psixologiya kafedrası
katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD) N.R. Rashidova
O'zbekiston, Toshkent

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy jahon taraqqiyoti sharoitida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar ta'sirida kasbiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati tahlil etilgan. Ayniqsa, kasbiy ta'lim muassasalari faoliyatida pedagogik menejment va liderlikning ahamiyati, rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Tadqiqotda rahbar kadrlar faoliyati yuqori malakani talab etuvchi maxsus mehnat faoliyati sifatida qaralib, uning pedagogik, psixologik va transformatsion liderlik jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *kasbiy ta'lim, pedagogik menejment, rahbar kadrlar, kasbiy kompetentlik, liderlik, transformatsion boshqaruv, gumanistik paradigma, ta'lim sifatini boshqarish, innovatsion pedagogik texnologiyalar.*

**DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL MANAGEMENT AND
LEADERSHIP COMPETENCIES IN VOCATIONAL EDUCATION
INSTITUTIONS UNDER CONDITIONS OF ECONOMIC AND SOCIAL
TRANSFORMATION**

The Military Security and Defense University
The Department of Military Pedagogy and Psychology,
PhD N.R. Rashidova
Tashkent, Uzbekistan

Abstract: *The article analyzes the essence of reforms being implemented in the vocational education system under the influence of socio-economic and technological changes occurring in the context of contemporary global development. In particular, the significance of pedagogical management and leadership in the functioning of vocational education institutions, as well as the necessity of developing the professional competencies of managerial personnel, is substantiated. The study considers the activities of managerial staff as a specialized form of labor requiring high qualifications, highlighting its pedagogical, psychological, and transformational leadership aspects.*

Keywords: *vocational education, pedagogical management, managerial*

personnel, professional competence, leadership, transformational management, humanistic paradigm, educational quality management, innovative pedagogical technologies

Zamonaviy jahon taraqqiyotining eng xarakterli jihatlaridan biri jadal sur'atlarda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik o'zgarishlardir. Mamlakatimizda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, jamiyatni demokratik tamoyillar asosida rivojlantirish va ijtimoiy sohani takomillashtirishga qaratilgan islohotlar barcha ijtimoiy institutlar, jumladan, ta'lim tizimi faoliyatida ham tub o'zgarishlarni taqozo etmoqda. Ayniqsa, kasbiy ta'lim tizimi ushbu o'zgarishlarga eng sezgir sohalardan biri hisoblanib, u mehnat bozorining zamonaviy talablariga moslashgan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlashga yo'naltirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, kasbiy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayon mazmunini yanada yangilash, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ish beruvchilar bilan hamkorlikni kuchaytirish hamda boshqaruv tizimini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki tez o'zgaruvchi ijtimoiy-iqtisodiy muhit sharoitida kasbiy ta'lim tizimining barqaror rivoji faqat moslashuvchan boshqaruv, zamonaviy ta'lim modellari va mehnat bozori bilan uzviy integratsiya sharoitidagina ta'minlanadi.[4]

Mamlakatimizdagi hozirgi iqtisodiy vaziyat ta'lim tizimining bozor iqtisodiyotiga o'tishi bilan bog'liq o'ziga xos muammolarni yanada ochiq va ravshan ko'rsatmoqda. Davom etayotgan islohotlar va iqtisodiy o'zgarishlar nafaqat ta'lim va tarbiya jarayonlariga, balki kasbiy ta'lim muassasalari faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur transformatsiya mamlakat taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi.[5] U an'anaviy sanoat sivilizatsiyasidan, ya'ni asosan ishlab chiqarishga tayanadigan iqtisodiy tizimdan, postindustrial jamiyatga o'tish jarayoni bilan bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, bilim, axborot, innovatsiyalar va inson kapitaliga tayanadigan, hamda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa kasbiy ta'lim tizimini yangi talablar asosida shakllantirishni, o'quv dasturlari va pedagogik texnologiyalarni bozor va jamiyat ehtiyojlariga moslashtirishni taqozo qiladi. Shuningdek, mutaxassislarning kasbiy kompetentligi va bozor talablariga mos keluvchi salohiyatini rivojlantirish, innovatsion va interaktiv ta'lim usullarini keng joriy etish, shuningdek ta'lim muassasasi rahbarlarining strategik va liderlik qobiliyatlarini mustahkamlash kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.[6]

Shu bois, zamonaviy kasbiy ta'lim muassasalarida iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiya sharoitida samarali pedagogik menejment va liderlikning faol

tatbiqi ta'lim sifati va shu orqali mehnat bozoriga mos mutaxassislarni tayyorlashda hal qiluvchi omil sifatida qaraladi.

Hozirda boshlangan va rejalashtirilgan islohotlarni samarali amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilayotgan konseptual yondashuvlarda ta'limni boshqarishning butun tizimini tubdan isloh qilish masalasi birinchi darajali ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Bunday tub o'zgarishlar nafaqat ta'lim muassasalari boshqaruvining samaradorligini ta'minlash, balki kasbiy ta'lim sohasida pedagogik jarayonlar sifatini yanada yuksaltirishga qaratilgan tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, boshqaruvning innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati hamda liderlik salohiyatini rivojlantirish asosiy ustuvor vazifalar qatorida qaraladi.

Islohotlar samarasini ta'minlashda rahbar kadrlar malakasining rivojlanishi nafaqat ta'lim sifatiga, balki ta'lim muassasasi jamoa a'zolarining strategik fikrlash, pedagogik menejment va liderlik qobiliyatiga ham bevosita bog'liqdir. Shunday qilib, kasbiy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ularni zamonaviy boshqaruv va liderlik talablariga moslashtirish — ta'lim tizimining barqaror va samarali faoliyatini ta'minlashda asosiy ahamiyat kasb etadi.[4]

Tadqiqot davomida rahbar kadrlarning kasbiy faoliyatini o'ziga xos, ixtisoslashtirilgan va yuqori malaka darajasini talab qiluvchi mehnat faoliyati sifatida ko'rib chiqiladi. Bunday faoliyat nafaqat umumiy boshqaruv funksiyalarini bajarishni, balki pedagogik, psixologik va liderlik kompetensiyalariga ega bo'lishni, ta'lim muassasasining strategik rivojlanishiga hissa qo'shishni talab qiladi. Rahbar kadrlar o'z vazifalarini amalga oshirishda jamoa a'zolari bilan samarali hamkorlik, innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, qaror qabul qilish va resurslarni muvofiqlashtirish salohiyatini namoyon qilishi zarur.

Shu ma'noda, rahbar kadrlar nafaqat ma'muriy va tashkilotchilik funksiyalarini bajaruvchi shaxs, balki ta'lim jarayonini strategik boshqara oladigan, pedagogik hamda ijtimoiy muhitda transformatsion ta'sir ko'rsatuvchi va tashkilotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi **liderlik kompetentligiga ega shaxs** sifatida talqin etiladi. Bu ta'lim muassasasida samarali pedagogik menejmentni amalga oshirish va yuqori sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatishda asosiy shart hisoblanadi.

Rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish doimiy va maqsadli jarayon bo'lib, u malaka oshirish kurslari, seminar treninglari hamda

shaxsning o'zini tarbiyalash va samarali kasbiy faoliyati orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, rahbar kadrlarning malakasini oshirish jarayoni faqat nazariy bilimlarni berish bilan cheklanmay, balki zamonaviy fan va pedagogik amaliyot o'rtasidagi yangi, integratsiyalangan aloqalarni shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Binobarin, tadqiqot davomida malaka oshirish jarayonida rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim faoliyati sifatida ko'rib chiqiladi. Unda rahbar kadrlar o'quv jarayonini, innovatsion texnologiyalardan foydalanishni, strategiya va boshqaruv usullarini amaliyotda qo'llashni o'rganadi, shu bilan birga, liderlik va transformatsion boshqaruv salohiyatini shakllantirish orqali ta'lim muassasasining samaradorligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu tarzda, rahbar kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni faqatgina malakasi va bilim darajasini oshirish bilan cheklanmay, balki uning shaxsiy va professional salohiyatini ham uzviy rivojlantirishga xizmat qiladi va zamonaviy pedagogik menejmentning talablariga mos holda amalga oshiriladi.

Ta'limning gumanistik paradigmasi doirasida rahbar kadrlarning boshqaruv faoliyati an'anaviy subyekt-obyektga asoslangan boshqaruv modellaridan farqli ravishda yangi sifat xususiyatlariga ega bo'ladi. Ushbu yondashuvda boshqaruv nafaqat topshiriq va buyruq asosida amalga oshiriladigan ma'muriy jarayon sifatida emas, balki o'quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari bilan hamkorlikka, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan interaktiv faoliyat sifatida ko'rib chiqiladi.

Gumanistik paradigmada rahbar kadrlar sifatida:

№	Mexanizm tarkibiy qismi	Amalga oshirish usuli	Kutilgan natija
1	Insonparvar yo'naltirilgan qaror qabul qilish mexanizmi	Jamoa a'zolarining individual ehtiyojlari, kasbiy va shaxsiy salohiyatini tahlil qilish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish	Jamoadi ishonch muhitini shakllantirish, qarorlar samaradorligini oshirish
2	Transformatsion liderlikka asoslangan boshqaruv mexanizmi	Pedagogik jarayonni strategiyalashtirishda transformatsion liderlik yondashuvlarini qo'llash	Pedagogik jarayonning innovatsion rivojlanishini ta'minlash
3	Kasbiy va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash mexanizmi	Kadrlarning kasbiy o'sishi, shaxsiy kamoloti hamda ijodiy faolligini rag'batlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratish	Pedagog kadrlar salohiyatining to'liq ro'yobga chiqishi
4	Innovatsion tashabbuslarni	Ijodiy g'oyalar va innovatsion	Ta'lim muassasasining

№	Mexanizm tarkibiy qismi	Amalga oshirish usuli	Kutilgan natija
	rag'batlantirish mexanizmi	loyihalarni qo'llab-quvvatlash, tashabbuslarni baholash va tatbiq etish	raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishi

jamo'a a'zolarining individual ehtiyojlari va salohiyatini hisobga olib qarorlar qabul qiladi;

pedagogik jarayonni strategiyalashtirishda transformatsion liderlik qudratidan foydalanadi;

kasbiy va shaxsiy rivojlanishni hamda ijodiy va innovatsion tashabbuslarni rag'batlantiradi.

Shu tariqa, gumanistik yondashuv subyekt va obyekt o'rtasidagi an'anaviy chegaralarni yumshatadi, ularni hamkorlik va o'zaro ta'sir doirasida integratsiyalaydi, bu esa ta'lim muassasasida samarali pedagogik menejment va yuqori sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlashda asosiy rolni o'ynaydi.

Munosabatlar tamoyili ta'lim oluvchilarga ta'lim muassasasida, sinf xonada yoki kichik guruhlarda o'z hayotiga ta'sir etuvchi muammolarni hal qilishda o'qituvchi bilan teng va hamkorlikka asoslangan munosabatda bo'lish imkonini beradi. Bunday yondashuv an'anaviy subyekt-obyektga asoslangan ma'muriy boshqaruvdan farqli ravishda, subyektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va hamkorlikka asoslangan pedagogik boshqaruvni shakllantiradi.

Shu tariqa, boshqaruv jarayoni nafaqat rahbar kadrlarning ko'rsatmalari va buyruqlariga tayanadi, balki ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilarning shaxsiy salohiyati, faol ishtirokini va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga ham yo'naltiriladi. Bu pedagogik menejmentning demokratlashtirilgan, gumanistik va integratsiyalangan modelini amalga oshirishda muhim shart bo'lib, ta'lim muassasasida ijodiy muhitni, yoshlar faolligini va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bu jarayonlar uzoq vaqtdan beri xorijiy pedagogikada, ayniqsa Amerika ta'lim tizimida, keng o'rganilgan va ilmiy e'tiborga sazovor mavzulardan biri bo'lib kelgan. Amerika kontekstida "pedagogik menejment" atamasi nafaqat nazariy bilimlar majmuasi sifatida o'rganilgan, balki uning ta'lim muassasalarida amaliy tatbiqlari va rahbarlikni samarali tashkil etishdagi roli ham jiddiy tahlil qilingan. Xorijiy tajribada pedagogik menejment ta'lim muassasalarida strategik rejalashtirish, pedagogik jamoani samarali boshqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va pedagog kadrlar hamda ta'lim oluvchilar faolligini rag'batlantirish bilan bog'liq jihatlarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kasbiy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
2. Abduraxmonov Q.X. Pedagogik menejment asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат современного образования. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004.
4. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. – 2003.
5. Northouse P.G. Leadership: Theory and Practice. – Thousand Oaks: Sage Publications, 2018.
6. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016.
7. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. – London: Sage, 2019.
8. Кларин М.В. Инновации в мировом образовании. – Москва: Педагогика, 2017.
9. Xalqaro ta’limni rivojlantirish bo‘yicha YUNESKO hisobotlari.